SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2/S-son (4-jild)
2024

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V4SI2Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/2 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**_07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ_**

*Полвонов Козимбек*
ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР ........ 10-15

*Xadjamuratova Matlyuba*
MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHGA INNOVATSION YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI ........ 16-21

*Шовкатов Шокир Шовкат ўғли*
АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР ........ 22-31

*Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O‘ZGARISHLAR VA ULARNING AHAMIYATI ........ 32-36

*Пардаев Асрор*
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕЪМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ ........ 37-42

**_08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ_**

*Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи*
ЖАХОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 43-52

*Рахманов Зафар*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ ........ 53-62

*Аминов Фазлитдин Бахадирович*
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ........ 63-70

*Курбонова Шахриноз Авазхоновна*
ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ........ 71-81

*Azimova Hulkar Egamberdiyevna*
KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI ........ 82-87

*Rajabov Orzujon* Mamasoliyevich
LOGISTIKA XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF THINGS)DAN FOYDALANISH ........ 88-93

*Саидов Сарвар Хайруллоевич*
ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ........ 94-104

*Сержанов Аймурат Медетбаевич*
ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ ЗАРУРИЯТИ ........ 105111

*Туробов Шерзод Алишерович, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ........ 112-119

*Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi*
O’ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH YO’LLARI ........ 120-126

*Temirova Feruza Sagdullayevna*
XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK ........................................ 127-132

*Sharipova Shaxzoda Xasanovna*
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 133-138

**09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Алимова Шахноза Хамидовна*
НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОИЙ-ДЕМОГРАФИК ГУРУҲ СИФАТИДА ........................................ 139-147

*Асракулова Адиба Набиевна*
"ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ" НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ ........................................ 148-154

***10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***

*Teshabayeva Dilfuza Muminovna*
LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS MEDIA ........................................ 155-160

*Rustamov Ilxom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi*
INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI ........................................ 161-165

*Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi*
PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS ........................................ 166-170

*Djurakulova Elmira Suyunova*
SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN ......... 171-177

*Dalieva Madina Khabibullaevna*
THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR ........................................ 178-183

*Жўраева Ирода Ахмедовна*
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУҒАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ ........................................ 184-189

*Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna*
INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI BIRLIKLARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI ........................................ 190-193

*Irgasheva Shoxida Sadriddinovna*
INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI ........................................ 194-200

*Tursunova Zarina Farxodovna*
LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI ASOSIDA) ........................................ 201-205

*Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich*
PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF TURKOPHONES ........................................ 206-212

*Radjabova Hafiza Shukrulloyevna*
INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI ........................................ 213-220

*Avezova Dilovar Salimovna*
TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI ........................................ 221-225

*Alikberova Kamila Adhamovna*
A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION ..................... 226-232

*Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi*
THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS ..................... 233-238

*Valieva Nargizakhon Zamir kizi*
COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT............. 239-244

*Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna*
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI ..................... 245-251

*Alimova Kamola Tursunovna*
CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS ..................... 252-258

*Сейтимбетова Айкумар Пулатбаевна*
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ..................... 259-264

*Бегжанова Айсилиу Махмудовна*
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....................265-270

*Kubanova Ilmira Sharifovna*
EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS ..................... 271-275

*Azamjonova Sarvinoz*
USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA ..................... 276-282

## *12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР*

*Muxiddinova Dildora Muxidddinovna*
O‘ZBEKISTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KIOTO KONVENSIYASINI JORIY ETISHNING HUQUQIY JIHATLARI VA JSTGA A’ZOLIKNING TA’SIRI ..................... 283-292

*Asadov Eldorjon Nizomiddin o‘g‘li*
SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING MUHIM OMILI ..................... 293-298

*Mustanov Ilxom Abdivalijonovich*
BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI ..................... 299-304

*G‘oyibov Jo‘rabek Choriyevich*
YOSHLAR MIGRATSIYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI ..................... 305-309

## *13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*

*Kuziyev Otabek Chuliyevich*
TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM UCH BOSQICHI ..................... 310-314

*Fattaxova Diloram*
TIL O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI ..................... 315-321

*Moydinova Elmira*
APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY

CLASSROOM ........................................ 322-326

*Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi*
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI ........................................ 327-333

*Doniyorova Gulrux Shoniyozovna*
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI ........................................ 334-338

*Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna*
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI ........................................ 339-344

*Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna*
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA ........................................ 345-351

*Mamaraimov Bekzod Qodirovich*
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI ........................................ 352-356

*Xudayberdiev Nurislam Nuralievich*
BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI ........................................ 357-363

*Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich*
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR ........................................ 364-369

*Teshaboyeva Shahodat*
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI ........................................ 370-375

*To'rayeva Dilnoza Ismoilovna*
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA ........................................ 376-380

*Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna*
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR ........................................ 381-388

*Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich*
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ........................................ 389-393

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/2(4)-2024
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich**
Termiz davlat universiteti,
Sport boshqaruvi kafedrasi oʻqituvchisi
E-mail:salimjonjavohir@gmail.com

## HARAKATLI OʻYINLAR ASOSIDA MAKTAB OʻQUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab oʻquvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda harakatli oʻyinlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek maktab oʻquvchilarini manaviy-ma’rifiy, aqliy va axloqiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda tarbiyalashda harakatli oʻyinlarning ijobiy jihatlari yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Maktab oʻquvchilari, jismoniy madaniyat, harakatli oʻyinlar, ilmiy asoslar, nazariy asoslar, shakllantirish, ma’naviy tarbiya, madaniyat, axloqiy tarbiya, ruhiy-irodaviy tarbiya, yoshga xos xususiyatlar.

**Dusyarov Salimjon Khudaimuratovich**
Lecturer at the Termiz State University

## FORMATION OF PHYSICAL CULTURE IN SCHOOL STUDENTS BASED ON ACTIVITY GAMES

**Abstract:** This article provides information about the scientific and theoretical basis of using action games in the formation of physical culture of schoolchildren. Also, the positive aspects of action games in the development and upbringing of schoolchildren's spiritual-educational, mental and moral abilities are highlighted.

**Key word:** Schoolchildren, physical culture, active games, scientific foundations, theoretical foundations, formation, spiritual education, culture, moral education, mental and voluntary education, age characteristics.

**Дусяров Салимжон Худаймуратович**
Термезский государственный университет,
Преподаватель кафедры спортивного управления

## ФОРМИРОВАНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИГР

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о научно-теоретических основах использования игр-действий в формировании физической культуры школьников. Также выделены положительные стороны игр-действий в развитии и воспитании духовно-образовательных, умственных и нравственных способностей школьников.

**Ключевые слова:** Школьники, физическая культура, активные игры, научные основы, теоретические основы, образование, духовное воспитание, культура, нравственное воспитание, умственное и произвольное воспитание, возрастные особенности.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N58

**Kirish.** Bizga ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi o'z fuqarolarining aqliy va axloqiy, kasbiy, shuningdek jismoniy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi va muhitini joriy qilish, yosh avlodni jismonan sog'lom, barkamol qilib tarbiyalash, ma'naviy yangilanishda, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan, demokratik huquqiy davlat qurishda sog'lom, ma'nan yetuk, jismonan barkamol kadrlar tayyorlash ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan o'sib kelayotgan yosh avlodni, maktab o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlari va jismoniy madaniyatini shakllantirish asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bugungi tahlikali bir zamonda globallashuv va ijtimoiylashuv jarayonlarida yosh avlodni sog'lom, jismonan barkamol qilib tarbiyalash bilan bir qatorda ularning ruhiy-irodaviy, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, shiddat bilan rivojlanayotgan zamon ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligi yuqori darajada bo'lishini, ma'naviy-ma'rifiy hamda axloqiy tarbiyasi mukammal bo'lishini taqozo etadi. [1]

Shu asnoda, agar jamiyatda mavjud barcha tashkilot va idoralar, umuman olganda barcha ijtimoiy-siyosiy institutlar tomonidan maktab o'quvchilarining ma'naviy, ma'rifiy va jismoniy salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratilsa, tashkiliy amaliy ishlar amalga oshirilsa, mavjud muammolar bartaraf etilsa o'sha jamiyatda yashab, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi va jismoniy madaniyatini shakllantirish yuqori darajaga ko'tariladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bir qancha mamlakatimiz va xorijiy davlat olimlarining ilmiy izlanishlarida shu narsa ma'lumki, yosh avlodning ma'naviy, ma'rifiy, estetik, mehnat, odob, aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiyasi va madaniyatini shakllantirishda harakatli o'yinlar vositasidan foydalanish yuqori samara berganligi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan va ilmiy asoslangan.

**Adabiyotlar tahlili.** Shu o'rinda o'quvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda milliy harakatli o'yinlardan yosh avlodni sog'lom va barkamol, jismonan kuchli, baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan adabiyotlar, dissertatsiyalar, monografiyalarni tahlil qilishni va ular xususida zarur xulosalar qilishni lozim deb topdik.

O'tmishdagi buyuk ma'rifatparvarlar tarbiya va tarbiyadagi yoshga bog'liq yondashuvga katta ahamiyat berishgan. Masalan, Ya.A.Komenskiy har bir o'qituvchi o'zi shakllantirgan shaxsning fazilatlari va xususiyatlarini bilishi kerak degan bo'lsa, tarbiyani faqat bolaning tabiati bilan muvofiqlashtirish orqali bolaga samarali ta'lim berish mumkin, deb izoh bergan. [2]

Yana bir mashhur ma'rifatparvar I.G.Pestalotsi esa bolaga dars berishdan oldin, siz uni har tomonlama bilishingiz kerak, deb ta'kidlagan. Shundagina o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham tarbiyaviy ishlar qiyinchilik tug'dirmaydi, ba'zan og'riqli bo'lmaydi, balki ijodiy, samarali va quvonchli bo'ladi.

A.S.Makapenko esa pedagogik g'oyalar bolaning psixologiyasini, uning pozitsiyasini va ijtimoiy muhitini, tengdoshlari va kattalar jamoasidagi mavqeyini chuqur anglashga asoslangan, deb ta'rif bergan. [3]

Ta'limdagi muvaffaqiyatlar V.A.Suxomlinskiyning fikricha, maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashda uning shaxsni shakllantirish jarayoniga, shaxsning xususiyatlari va imkoniyatlarini inson yoshdagi davriga qarab rivojlanish qonuniyatlariga asoslanib, chuqur kirib borganligi bilan birlashtiradi. Bolalarning o'smir yoshiga bog'liq rivojlanish bosqichlarini

biladigan oʻqituvchi oʻquvchining ichki dunyosini koʻra oladi, uning munosabatlari, hissiyotlari, his-tuygʻularini his qilgandagina u har doim taʼlim va tarbiya ishlarida muvaffaqiyat qozonadi, ayniqsa, umumtaʼlim maktab oʻquvchilari uchun ayni muddao hisoblanadi.

Mamlakatimiz olimlaridan A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyevlarning "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati" nomli darsligida jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati predmeti, jismoniy tarbiya tizimi, jismoniy tarbiyani boshqa yoʻnalishlari bilan bogʻliqligi, jismoniy tarbiya nazariyasining umumiy prinsiplari (tamoyillari), jismoniy tarbiya nazariyasining ilmiy-tadqiqot usuliyatlari, jismoniy tarbiya vositalari, jismoniy (harakat) sifatlar va ularni rivojlantirish, jismoniy tarbiya tahlili, uning vazifalari va xususiyatlari, taʼlimning jarayonining tuzilishi, taʼlimning uslubiy tamoyillari, jismoniy tarbiyada taʼlimning umumpedagogik va maxsus metodlari, maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi, umumiy taʼlim maktabi oʻquvchilarining jismoniy tarbiyasiga doir maʼlumotlar bayon qilingan. [4]

T.S.Usmonxoʻjayev, A.A.Poʻlatov, Sh.A.Poʻlatov, D.X.Abdullayevlarning "Xalq harakatli oʻyinlari nazariyasi va amaliyoti" nomli darsligida xalq harakatli oʻyinlarining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi, xalq harakatli oʻyinlarining mohiyati va tasnifiy xususiyatlari, turli maskanlarda harakatli oʻyinlarni tashkil etish va oʻtkazish, oʻyin rahbariga qoʻyiladigan talablar, sport turlariga xos harakatli oʻyinlar, harakatli oʻyinlar va ularning mazmuni, harakatli oʻyinlarni oʻrgatish uslubiyatiga doir maʼlumotlar berilgan.

P.Xoʻjayev, K.Raximqulov, B.Nigmonovlarning "Harakatli oʻyinlarni oʻqitish metodikasi" nomli oʻquv qoʻllanmasida harakatli oʻyinlarning kelib chiqish tarixi, harakatli oʻyin turlarining tasniflanishi, guruhlanishi, harakatli oʻyinlarni tashkil qilish shakllari, jismoniy tarbiya darslarida harakatli oʻyinlarni oʻtkazish metodikasi, maktabda darsdan tashqari vaqtlarda, tushlik tanaffus paytlarida, harakatli oʻyinlarni oʻtkazish metodikasiga doir maʼlumotlar keltirilgan hamda tegishli tavsiyalar berilgan. [6]

Termiz davlat universiteti Sport faoliyati va boshqaruvi fakultetida bugungi kunda faoliyat olib borayotgan olimlardan pedagogika fanlari nomzodi., dotsent R.Toʻlaganov, pedagogika fanlari nomzodi., dotsent Ya.Ch.Doniyeva, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktorlari (PhD) Ya.M.Abdullayev, Sh.Xudoyberdiyevlar talaba qizlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, maktab oʻquvchilarining jismoniy va valeologik madaniyatini shakllantirishda harakatli oʻyinlardan foydalanish samaradorligi, harakatli oʻyinlardan foydalanishning ilmiy nazariy, ilmiy-amaliy asoslari hamda imkoniyatlari haqida ilmiy izlanishlarni olib borganlar.

**Muhokama.** Mamlakatimizda har bir soha vakillari turli yangiliklar, zamonaviy oʻzgarishlar yurt kelajagi, mamlakat rivoji uchun xizmat qilar ekan, bu borada taʼlim sohasi, xususan, umumtaʼlim maktablari ham asosiy sohalardan biri boʻlib xizmat qiladi. Yosh avlodga taʼlim berish, ularni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash hamda sogʻlomlashtirishda umumtaʼlim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog-oʻqituvchilarning oʻrni beqiyosdir.

Yosh avlodning oʻsib ulgʻayishi, ularning har tomonlama yuksalishining ilk bosqichi maktabgacha taʼlim muassasasidan boshlanadi. Biroq yuksalishning asosiy davri umumtaʼlim maktab bilan bevosita bogʻliqdir. Maktab oʻquvchilari har tomonlama mukammal, komil inson boʻlib voyaga yetishda umumtaʼlim maktablarini jahon andozalariga mosligini taʼminlash, uning hozirgi rivojlanib borayotgan asr uchun talabga javob beruvchi muassasaga aylantirish shu soha mutasaddi xodimlari oldida turgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, umumiy oʻrta taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, umumiy oʻrta taʼlim muassasalari tarmogʻini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan taʼminlash, ularning malakalarini doimiy oshirib borish, bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, taʼlim-tarbiya jarayoniga zamonaviy taʼlim

dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, maktab oʻquvchilarini har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni maʼnaviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga taʼlim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-3907-sonli qarori ushbu sohada davlatimizning kelajagi uchun juda muhim va taʼbir joiz boʻlsa, birinchi darajali masala ekanligini bildiradi. [7]

Maktab oʻquvchilarini maʼnan yetuk, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning maʼnaviy-marifiy, axloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan bir qatorda taʼlim va tarbiya berish, ularni sogʻlomlashtirish hamda jismoniy madaniyatini shakllantirishda maxsus tanlab olingan, oʻquvchilarning yoshi, jinsi, salomatlik darajasi, jismoniy sifatlarining rivojlanganlik darajasi qarab tanlab olingan harakatli oʻyinlar asosiy vositalardan boʻlib xizmat qiladi.

Bizga maʼlumki jismoniy tarbiya darslarida, jismoniy tarbiyaning darsdan tashqari shakllarida maktab oʻquvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda asosiy metodlardan biri bu oʻyindir metodidir. Oʻyin metodi ayniqsa boshlangʻich sinflarda yetakchi metodlardan biri boʻlib, oʻyinlarda bolalarning tasavvurini boyitishning asosiy shakli rolli oʻyinlarni tashkil etish hisoblanadi. Rolli oʻyin elementlarini oʻzlashtirish, qoʻllash bolalarda yoshlikdanoq paydo boʻla boshlaydi. Rolli oʻyinlarda bolalar kattalar bilan birga hayotga boʻlgan istaklarini qondiradilar va maxsus oʻynoqi shaklda ular kattalarning munosabatlari hamda ish faoliyatini qayta yaratadilar. [3]

Turli estafeta oʻyinlari, mazmuni jixatidan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan harakatli oʻyin turlari ham maktab oʻquvchilarida katta qiziqish va taasurotlar qoldiradi. Ularning salomatliklarini mustahkamlash va jismoniy madaniyatini shakllantirishda asosiy vositalardan biri boʻlib xizmat qiladi.

**Natija**. Harakatli oʻyinlardan oʻz oʻrnida samarali foydalanish, oʻquvchi yoshlarni uyushtirish, qiziqarli va mazmunli tashkil qilish va oʻtkazish bugungi kun maktab oʻqituvchilaridan pedagogik mahorat, tajriba va xushmuomilalikni talab qiladi.

Shaxsning rivojlanishi va shakllanishida insoniyat bir qator bosqichlardan oʻtadiki, ularning har biri oʻziga xos xususiyatlari va naqshlari bilan ajralib turadi. Oʻqituvchi faoliyati inson rivojlanishining turli yoshdagi bosqichlarini chuqur anglashga asoslangan boʻlsa, u shundagina oʻquvchilarni tarbiyalash, oʻqitish va tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradi.

Oʻqituvchi-pedagog maktab oʻquvchilarining dastlabki kunlaridan boshlab, oʻqituvchi oʻquvchilarning oʻzaro munosabatlarini, yetakchilar va boʻysinish guruhlarni ochib beradi, bu unga bolalarning munosabatlarini, sinfdagi aloqalarini boshqarishga imkon beradi. Taʼlimga aloqador turli turdagi ishlarni, oʻquvchilar oʻrtasida vazifalar va topshiriqlarni mohirona taqsimlash tufayli bolalarga quvonch keltiradigan, shu bilan birga ularning barcha jismoniy sifatlarini, hayotiy harakat koʻnikma va malakalarini, zaruriy xatti-harakatlari hamda harakat amallarini rivojlantiridigan harakatli oʻyinlardan foydalanish, ulardagi kamchiliklarni yengib oʻtishga yordam beradigan hamda maktab uchun belgilangan malaka talablarini yoʻlga qoʻyish ishlarini amalga oshiradi. [5]

**Xulosa** oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, taʼlim tizimida, xususan, umumtaʼlim maktablarida bolalarning salomatliklarini taʼminlash va mustahkamlashda, ularning manaviy, maʼrifiy, axloqiy tarbiyasini oshirishda hamda jismoniy madaniyatini shakllantirishda yoʻnaltirilgan harakatli oʻyin turlaridan keng miqiyosda foydalanish, ularning samaradorligini oshirish, oʻquv-tarbiya jarayonini tanqidiy tahlillar asosida tashkil qilish, oʻtkazish va talablar darajasida olib borishni taqozo etadi.

Dars jarayonini yuksak pedagogik tajriba, pedagogik mahorat tashkil qilish va oʻtkazish maqsadga muvofiqdir. Bu borada esa oʻqituvchilarga kasbiy va shaxsiy kompitentlik zarur boʻladi. Shuning bilan bir qatorda kreativlik asosida yondashuv, yuksak maʼnaviyat hamda madaniyatlilik, xushmuomilalik va shu kabi bir qator tamoyillariga eʼtiborli boʻlish, shu asosda jarayonlarni tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar/Литература/ References:**


1. T.S.Usmanxodjayev., Sh.X.Isroilov., A.A.Pulatov., Sh.A.Pulatov. Milliy va harakatli oʻyinlar. Darslik. Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2015. 265 s.
2. K.Rahimqulov. Milliy harakatli oʻyinlar. Oʻquv qoʻllanma. «TAFAKKUR-BOʻSTONI». Toshkent-2012. 142 s.
3. T.Usmanxodjayev., S.Usmanxodjayev., N.A.Chorshamiyev., Sh.E.Keldiyorov., B.X.Xoliqov. SPORT turlariga oid xarakatli oʻyinlar. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent. «OʻZKITOBSAVDONASHRIYOTI» 2020. 176 s.
4. Ya.Ch.Daniyeva. Dissertatsiya. I-II bosqich talaba qizlar jismoniy tarbiya darslarida harakatli oʻyinlardan foydalanish samaradorligi. Toshkent. 2009.
5. Dusyarov Salimjon Khudaimuratovich. EFFECTIVENESS OF ACTION GAMES IN THE PROCESS OF COMPLEX TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES. International scientific – online conferense. https://doi.org/10.5281/zenodo.7648394. London.
6. O’GLI, E. E. M. (2020). Specific Features Of Teaching Students For Extracurricular Ball Sports. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 7(10), 139-141.
7. Elmurad, E. (2023). System of Development of Professional and Pedagogical Creativity of Future Physical Education Teachers on the Base of a Competent Approach. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), ˇ261-264.
8. ESHQOBILOV, E. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL PEDAGOGICAL CREATIVITY OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS ON THE BASIS OF A COMPETENT APPROACH. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(3), 201-204.
9. Menglimurod o’g’li, E. E. (2024). CONDITIONS FOR COMPETENCE OF THE TEACHER OF PHYSICAL EDUCATION AND THE METHODOLOGY OF ITS ORGANIZATION.
10. Urolovich, B. C. (2024). Using the Game in Teaching Physical Exercises to Primary Class Students. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(3), 780-783.
11. Шарипов, Ҳ. (2024). TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING O’RNI VA AHAMIYATI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(3).
12. Farkhodovna, G. D. (2023). Determining the Morphological and Functional State of Student Girls through Activity Games. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 265-271.
13. Khudaimuratovich, D. S. (2023). POSSIBILITIES OF USING ACTION GAMES IN FORMING THE PHYSICAL CULTURE OF 11-13-YEAR-OLD SCHOOL STUDENTS. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 191-195.

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V4SI2Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/2 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).